


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI





YAQIN VA O‘RTA SHARQ XALQLARI IJTIMOIIY-FALSAFIY
FIKRLARI (VIII-XVIII ASRLAR)

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Mutaxassislik:	70220502 – Sharq falsafasi va madaniyati
	70220503 – Tasavvuf germenevtikasi

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani:  Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi mudiri:  Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i  Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi SXIFF1106		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari (VIII- XVIII asrlar)	72	108	180	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga VIII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari rivojlanishiga oid nazariy bilimlarni o'rgatish va amaliyotda tatbiq etish konikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – magistrantlarga fanning nazariy va amaliy masalalarini, shuningdek VIII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda Islom falsafasi va uning turli yo'nalishlari: kalom, mutaziliya, tabiiyun, tasavvuf yo'nalishlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g'oyalar tahliliga oid mavzularning mazmuni va mohiyatini yoritib berishdan iborat.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Leiden universiteti (ARWU 111) xorij tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. VIII-IX asrlarda Islom falsafasining shakllanishi</p> <p>Islom dini. Islomda Sunniylik kalomi. Kalom ilmi. Mutakallimlar. Kalomning dialektik tafakkur uslubi. Kalomning paydo bo'lishi va rivoji. Payg'ambar Muhammad (s.a.s.) vafotidan so'ng eng asosiy (sunnilylik-shialik) ajralish, mazhab ichida turli firqalarga bo'linishning boshlanishi va g'oyaviy parchalanishning asosiy muammolari.</p> <p>Mu'taziliylar ta'limoti. Mu'taziliylarga xos beshta umumiy tezislar: Tavhid, Ilohiy adolat, Oxiratdagi va'da va jazo, O'rta holat, bevosita islom jamiyati hayotiga aloqador ma'naviy imperativ.</p> <p>Buyuk ensiklopedik olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu</p>				

Rayhon Beruniyning ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga ta'siri. Diniy va dunyoviy ilmlarning uyg'un ligi Sharq Renessansining muhim xususiyati sifatida.

2-mavzu. Markaziy Osiyoda VIII-IX asrlarda islom ilmlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi va rivojlanishi. Qur'oni Karim va Muhammad (s.a.v.) hadislarini ta'limotining shakllanishi. Hadislarda bayon etilgan islomiy tarbiyaning asosi imon va solih amallardan iboratligi.

Imom al-Buxoriy (810-870)ning musulmon olamida shuhrat qozongan "Al-Jome' as-sahih" ("Ishonarli to'plam") asari. Muhaddis asarlarida axloq-odobning asosini tashkil etuvchi ezgulik tushunchasi mohiyatining ochib berilishi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892)ning "Sunani Termiziy" asarida to'plangan hadislarining shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati.

Burxoniddin Marg'inoniy (1123-1197) – O'rta asrlar Sharqining buyuk huquqshunos olimi. Uning ellik yetti kitobdan iborat "Hidoya" – "To'g'ri yo'l" asarining musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelayotganligi.

Movarounnahrlik olimlar tomonidan rivojlantirilgan islom ilmlarining muhim xususiyatlari.

3-mavzu. Abu Nasr Forobiy tabiiy-ilmiy va falsafiy ilmlarining ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga ta'siri

Abu Nasr Forobiyning bilish nazariyasi va mantig'i. Shariatni yaxshi tushunishda aqlni ishlatish zarurligi. Forobiy jamiyat va axloq haqida. Inson o'zining tabiiy holatida kamchilikka ham, kamolotga ham ega emasligi, inson mohiyatini tarbiyalash uchun uzoq muddat davom etadigan yaxshi amallarning kerakligi haqidagi qarashlari. Forobiy fozil shahar to'g'risidagi ta'limotining insoparvarlik mohiyati.

4-mavzu. Abu Ali ibn Sino tabiiy-ilmiy va falsafiy ilmlarining falsafiy fikr rivojiga ta'siri

Abu Ali ibn Sinoning falsafiy bilimlar tizimida inson va jamiyat muammosi. Ibn Sinoning bilish nazariyasi, mantig'i, ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Insonlarning jamiyatdagi o'rni va vazifalariga qarab 3 guruhga bo'linishi. Odamlarning mulkiy tengsizligi inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababi ekanligi haqida. Ibn Sino ilohiyoti.

5- mavzu. Abu Abdulloh Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tabiiy-ilmiy va falsafiy asoslari

Abu Abdulloh Xorazmiyning hayoti va ijodi. "Mafotih al-ulum" asari va uning ijtimoiy-falsafiy fikr rivojida tutgan o'rni. Ilmlarning shariat va u bilan

bog'liq "arab" ilmlari hamda "arab bo'lmagan" ilmlar (yunon va boshqa xalqlar)ga bo'linishi. Arab bo'lmagan" ilmlarning yana nazariy falsafa va amaliy falsafaga bo'linishi. Amaliy falsafa: axloq – etika (ta'lim-tarbiya, odamni boshqarish); manzil tadbirlari (uy xo'jaligini boshqarish); siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish) ga bo'linishi.

6- mavzu. Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tabiiy-ilmii va falsafiy asoslari

Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi. Ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tabiiy-ilmii va falsafiy asoslari. Beruniyning bilish nazariyasi hamda jamiyat haqidagi ta'limoti.

Beruniyning ijtimoiy falsafasi. Odamning kelib chiqish tarixi. Eralar tarixi. Inson jamoalarining kelib chiqish sabablari. Inson jamolari tarixida buyuk tabiiy hodisalarning roli. Turli xalqlar, tabaqalar va tillarning kelib chiqishi haqida. Jamiyat taraqqiyotida geografik muhitning ahamiyati. Davlatning kelib chiqishi sabablari. Davlatni boshqarish shakllari. Jamiyat va davlat ravnaqini belgilovchi omillar. Beruniy axloqiy qarashlarining insonparvarlik mohiyati. Oila va nikoh masalasi. Iqtisodiy masalalar. Jamiyat iqtisodiy hayotida pul va savdoning ahamiyati. Beruniy ijodida diniylik va dunyoviylikning uyg'unligi.

Beruniyning tabiiy-ilmii va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jahon ilmi-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

7-mavzu. Ash'ariya ta'limoti. Abu Mansur al-Moturidiy Movarounnahr kalom ilmi asoschisi

Abu-l-Hasan al-Ash'ariy (873-Basra-936-Bag'dod) hayoti va asarlari, Ash'ariya ta'limotining asoschisi. Al-Ash'ariyning kalom ta'limoti. Ash'ariya maktabining ikkilanishi: Atomizm falsafasi; Imon va aql.

Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy (870-Samarqand-944)ning hayoti va ijodiy merosi, moturidiylik oqimi asoschisi. Moturidiyning kalom ta'limoti. Moturidiyning ustozlari va izdoshlari. Kalom ta'limotini o'rganishda "Kitobut-tavhid" asarining ahamiyati.

Al-Moturidiy ta'limoti mu'taziliylar singari faqat aqlga suyanmay, *aql bilan naqlni* qo'shib foydalanishni zarur deb bilishi va yagona aqida tizimini (hanafiya mazhabida) o'rnatishga ulkan hissa qo'shganligi. Barcha aqidalar borasidagi bahsli mavzularni har bir firqaga dalillar asosida isbotlab berganligi.

8-mavzu. Ahmad Yugnakiy va Yusuf Xos Xojiblarining ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari

Ahmad Yugnakiyning hayoti va ijodi. "Hibat ul-haqoyiq" asari va undagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar va hayotiy hikmatlar. Asarning turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallanganligi. Inson hayotida ilm manfaati va jaholatning zarari, odoblarning

ahamiyati haqidagi fikrlari.

Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi. "Qutadg'ū bilig" - turkiy tildagi islom ma'naviyatining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qomusi darajasidagi asar ekanligi. Asardagi ijtimoiy-axloqiy va tasavvufiy g'oyalar.

9-mavzu. Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy-falsafiy fikr rivojidagi o'rni. Abdulxoliq G'ijduvoni va Xoja Ahmad Yassaviy tariqatlari

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining mohiyati, uning yirik namoyandalari va oqimlari. Ularda inson kamoloti masalasining qo'yilishi.

Abdulxoliq G'ijduvoni (taxm. 1103-1179) tasavvufiy qarashlarining "vahdati vujud" ta'limotiga asoslanganligi. Insonda ikki olam haqida.

Yassaviya tariqati. Hoja Ahmad Yassaviy (1041- taxm. 1166) ning hayoti va ijodi. Yassaviyning «Devoni hikmat» asaridagi yuksak axloqiy poklik va insonparvarlik, nafsni tiyish, halol va pok bo'lish haqidagi g'oyalarning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni.

10- mavzu. Abu Xomid G'azzoliyning islom dunyosidagi falsafiy fikrlarga ta'siri

Abu Homid G'azzoliy (1059-1111) tasavvuf nazariyotchisi sifatida. Abu Homid G'azzoliyning hayoti va ijodi. G'azzoliyning falsafiy dunyoqarashi. G'azzoliy islomiy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy ilmlarni, jumladan, mantiq, fiqh, falsafani chuqur o'rganganligi. Uning oldida ko'ndalang turgan asosiy muammo tasavvuf asosida – fan bilan din o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish bo'lganligi. mo'ʻtadil tasavvuf tizimining yaratilishi.

G'azzoliy tomonidan falsafa va diniy ta'limotlarning barcha vakillarini to'rt toifaga: 1) mutakallimlar; 2) botiniylar; 3) faylasuflar; 4) so'fiylarga bo'linishi. G'azzoliyning islom dunyosida ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojiga qo'shgan hissasi.

11- mavzu. Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf nazariyasi

Sharq mamlakatlarida nasihatnoma, vasiyatnoma va pandnomalar keng tarqalgani. Ularda ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan bir qatorda axloq va ta'lim-tarbiyaga ham keng o'rin berilgani. «Ro'shoinoma», «Qobusnoma», Fariddin Attorning «Pandnoma»si, Ubayd Zakoniyning «Sad pand» asarlari. O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida Qadimgi Yunonistonning mashhur mutafakkirlari – Aflotun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalar ham keng yoyilganligi.

Islom dinidagi ezgulik g'oyalarning Sharq mutafakkirlarining dunyoqarashida aks etishi. Umar Xayyom (1048-1131) mutasavvif shoir, faylasuf olim. Faylasuf-olimning ilmiy-ma'rifiy va axloqiy qarashlari.

Aziziddin Nasafiy (mil.XIII asr)ning falsafiy va irfoniylar qarashlarida olam

va odam, jon va ruh masalasi. Komil inson tushunchasining talqini va uning tarbiyaviy ahamiyati.

12- mavzu. Jaloliddin Rumiyning Sharq falsafiy tafakkuridagi o'rne

Jaloliddin Rumi (1212-1286)ning «Ichingdagi ichingdadir» asarida axloq go'zalligi, dunyoning o'tkinchi ekanligi, ilm qadri, sabr-qanoat haqidagi g'oyalari tahlili. «Masnaviy Ma'naviy»da surat va ma'no, kull va juz', asl va soya, taqlid va taxqiq masalalari. Rumi ijodida komil inson tasviri. Jaloliddin Rumi va Mavlaviya tariqatining shakllanishi.

13-mavzu. XIV asrning oxiri - XVI asrning boshlarida Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar

Ibn Xalidning hayoti va faoliyati. Ibn Xalidning ma'naviy merosi. Ibn Xalidning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Insonning boshqa maxluqotlardan farqli o'laroq tafakkurga ega ekanligi va ehtiyojsiz mavjud bo'la olmasligi. Jamiyatning vujudga kelish sabablari, jamiyat hayotiga ta'sir qiluvchi tabiiy va ijtimoiy omillar haqida. "Taassub" tushunchasi va uning jamiyat hayotidagi o'rni.

Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ijtimoiy-falsafiy fikrlar. «Temur tuzuklari»da qonun ustivorligi, insonparvarlik va adolat g'oyalari. "Kuch adolatdadir" degan g'oyasining mohiyati. Temuriylar sulolasi davrida fan va madaniyat. Ijtimoiy-falsafiy va tasavvufiy g'oyalarning rivojlanishi. Boburning «Boburnoma», «Mubayyin» asarlari va g'azallarida yaxshilik, xaqiqat, adolat g'oyalarining ilgari surilishi.

Qosimi Anvarning hayoti va ijodi. Mutafakkir asarlarida tasavvuf oqimining yirik vakili sifatida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgani.

14-mavzu. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyalari

Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodi. Falsafiy dunyoqarashining irfoniy xarakteri. Jomiyning falsafiy-didaktik va axloqiy-talimiy g'oyalari. Jomiy asarlaridagi insonparvarlik g'oyalarning ijtimoiy ahamiyati.

Alisher Navoiy dunyoqarashiga naqshbandiylik g'oyalarining ta'siri. Mutafakkir ijodida inson va uning jamiyatdagi o'rni masalasi. Alisher Navoiy asarlari va g'azallaridagi falsafiy didaktik va axloqiy-talimiy masalalar. Ularning insonparvarlik mohiyati.

15-mavzu. Xusayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniyning inson va jamiyat haqidagi qarashlari

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505)ning «Futuvvatnomai Sultoniyy xud javonmardlik tariqati» asarlarida inson tabiatining tahlili. Jamiyat va jamiyat qonunlari, odil podshohlar haqida. Jamiyatni adolatli boshqarishda davlat xizmatchilari (saroy a'yonlari) ning vazifalari va ularga xos xislatlar. Koshifiy dunyoqarashiga tasavvuf ilmining ta'siri. Koshifiyning axloq falsafasi. Koshifiy

ijtimoiy-axloqiy qarashlaridagi insonparvarlik g'oyalari. «Axloqi Muxsiniiy» asarlarida komil inson xos bo'lgan axloqiy xislatlar.

Jaloliddin Davoniy (1427-1502)ning hayoti va ilmiy merosi. Falsafa, mantiq, fiqh, axloqshunoslik, riyoziyot, geometriya sohalaridagi izlanishlari va risolalari. Davoniy amaliy falsafaning vazifasi va ahamiyati haqida. Inson tabiatining tahlili. «Axloqi Jaloliiy» asari, unda axloq mezonlarining ishlab chiqilishi. Ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganish, ta'lim-tarbiya olishning targ'ib qilganligi. Ideal jamiyat va odil podshoh haqidagi qarashlari.

16-mavzu. XVI – XVIII asrlarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji

Yusuf Qorabog'iyning O'rta Osiyodagi XVI-XVII asrlar falsafiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Olam va odam mohiyatiga oid qarashlarining panteistik xarakteri. Inson tanasini - kichik olam, koinotni - katta olam sifatida tushunilishi va ularning o'zaro aloqadorligi.

Muhammad Sharif Buxoriyning falsafiy qarashlari. Mirzajon Sheroziyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Inoyatullo Buxoriy ararlari va sharhlari.

17-mavzu XVI – XVIII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji

Mirzo Bedil ijtimoiy-axloqiy nazariyasining asosiy g'oyalari va insonparvarlik mohiyati. Mirzo Bedil dunyoqarashining tasavvufiy xarakteri.

Husayn al-Xalxoliiy, Abdul Hakim Siyolkutiiy ma'naviy meroslarining ijtimoiy ahamiyati.

18-mavzu. Boborahim Mashrab va So'fi Allohyor ijodida insonparvarlik g'oyalari

Boborahim Mashrabning hayoti va dunyoqarashining tasavvufiy xarakteri. Mashrab ijodida komil inson tushunchasining talqini. Shoirning lirik qahramoni fano va baqo martabasiga erishgan, ko'nglida bahri rahmat toshib, ilohiy nurga g'arq bo'lgan orifi komil ekanligi. Bunday komil inson oldida barcha dinlar barobar, masjido butxona, ka'bayu kaliso orasida farq yo'q. Chunki barcha dinlarda ham Haqqa intilish va Haqni sevish – asosiy g'oya, ya'ni Haq hamma dinlarning tub mohiyatini belgilashi haqidagi qarashlari.

So'fi Allohyorning hayoti, asarlari. «Maslak ul-muttaqin» va «Sabot ul-ojizin» asarlarining bosh g'oyasi. Jamiyatni qayta tarbiyalash, uning vujudini turli illatlardan davolash dasturi haqida. So'fi Allohyor ijodida jamiyat illatlarining fosh etilishi.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar “Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari (VIII-XVIII asrlar)” fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy

manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. VIII-IX asrlarda Islom falsafasining shakllanishi
2. Markaziy Osiyoda VIII-IX asrlarda islom ilmlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari
3. Abu Nasr Forobiy tabiiy-ilmiy va falsafiy ilmlarining ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga ta'siri
4. Abu Ali ibn Sino tabiiy-ilmiy va falsafiy ilmlarining falsafiy fikr rivojiga ta'siri
5. Abu Abdulloh Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tabiiy-ilmiy va falsafiy asoslari
6. Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tabiiy-ilmiy va falsafiy asoslari
7. Ash'ariya ta'limoti. Abu Mansur al-Moturidiy Movarounnahr kalom ilmi asoschisi
8. Ahmad Yugnakiy va Yusuf Xos Xojiblarning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari
9. Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy-falsafiy fikr rivojidagi o'rni. Abdulkoliq G'ijduvoni va Xoja Ahmad Yassaviy tariqatlari
10. Abu Xomid G'azzoliyning islom dunyosidagi falsafiy fikrlarga ta'siri
11. Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf nazariyasi
12. Jaloliddin Rumiyning Sharq falsafiy tafakkuridagi o'rni
13. XIV asrning oxiri - XVI asrning boshlarida Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar
14. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyalari
15. Xusayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniyning inson va jamiyat haqidagi qarashlari
16. XVI – XVIII asrlarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji
17. XVI – XVIII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji
18. Boborahim Mashrab va So'fi Allohyor ijodida insonparvarlik g'oyalari

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l

qo'ymasligi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

“Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari (VIII-XVIII asrlar)” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Markaziy Osiyoda Islom falsafasining asosiy yo'nalishlari.
2. Ash'ariya va moturidiya ta'limotlarining qiyosiy tahlili.
3. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari.
4. Abu Ali ibn Sinoning «Rasolat - at tayr» («Qush risolasi») nomli ramziy-majoziy asarining mazmuni va mohiyati.
5. Abu Ali ibn Sinoning «Uyg'oq o'g'li Tirik» («Hayy ibn Yaqzon») nomli ramziy-majoziy asarining mazmuni va mohiyati.
6. Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g'oyalar.
7. Abu Xomid G'azzoliy asarlaridan inson va jamiyat hayotiga oid 10ta hikmatli fikrlarini topib, sharhlang.
8. Sharq mumtoz adabiyoti namunalariidan bo'lgan «Qobusnoma» asarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g'oyalar.
- 9.
10. Xoja Ahmad Yassaviy «Hikmatlar» asarini o'qib chiqing, undagi inson qadr-qimmatini va hayotning ma'nosiga oid misralaridan keltiring.
11. Najmiddin Kubro tomonidan ishlab chiqilgan axloq kodeksi va uning ahamiyati.
12. Ibn Xalduinning «Muqaddima» asarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy fikrlar.
13. «Temur tuzuklari»dagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarni sharhlang.
14. Abdurahmon Jomiyning irfoniy qarashlari va ularning ijtimoiy ahamiyati.
15. Alisher Navoiy dunyoqarashiga naqshbandiylik g'oyalarining ta'siri.
16. Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muxsiniy» risolasidagi komil insonga xos bo'lgan axloqiy xislatlar.
17. Jaloliddin Davoniyning inson va jamiyat haqidagi qarashlari.
18. Mirzo Bedil ijtimoiy-falsafiy qarashlari.

	<p>19. Mashrab ijodida komil inson tushunchasining talqini.</p> <p>20. Soʻfi Allohoyorning jamiyatni qayta tarbiyalash, uning vujudini turli illatlardan davolash dasturi.</p> <p>Mustaqil oʻzlashtiriladigan mavzular boʻyicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>V. Fan oʻqitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Magistrant bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • VIII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari rivojlanishi haqida <i>tasavvurga ega boʻlishi</i>; • VIII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharqda Islom falsafasi va uning turli yoʻnalishlari: kalom, mutaziliya, tabiiyyun, tasavvuf yoʻnalishlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy gʻoyalar tahliliga oid <i>bilimlarga ega boʻlishi va ulardan foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak.</i>
4.	<p>VI. Taʼlim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • maʼruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashgʻulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa boʻlib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʻla oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va jiriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. ASOSIY VA QOʻSHIMCHA OʻQUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Пулатова Д.А., Нуриддинов М.Н., Кодиров М., Файзиходжаева Д.Э., Сулаймонов Ж.Б. Якин ва Ўрта Шарқ халқлари ижтимоий-фалсафий фикрлари (VIII-XVIII асрлар). Ўқув қўлланма. – Т.:ТДШИ, 2014. 2. Нуриддинов М.Н. Ўрта асрлар Шарқ фалсафий тафаккури тарихидан. Ўқув қўлланма. – Т.: Adad plyus. 2015. 3. Оʻzbekiston falsafasi tarixi. Oʻquv qoʻllanma. – Т.: Noshir, 2013. 4. Кныш А. Мусульманский мистицизм: краткая история. Учебное пособие. – Санкт-Петербург: Диля, 2004.(Электрон). <p>Qoʻshimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoyev Sh.M.. Hozirgi zamon va Yangi Oʻzbekiston. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2024.

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
8. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.press-service.uz/uz/lists/view/1371
11. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// www.press-service.uz/uz/lists/view/688
13. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)//<http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat,2008.
15. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati. – T.: O'zbekiston, 2014.
16. Falsafa: ensiklopedik lug'at./O'zRFA I. Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instsituti. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
17. Qodirov M. “Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqining falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar)”. – T.: TDSHI, 2010.
18. Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот хақида. –Т.: «Езувчи» нашриёти, 2002.
19. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
20. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан колган Ёдгорликлар. –Т.: Фан, 1957.
21. Абу Райхон Беруний. Танлангаи асарлар. I-жилд, –Т.:Фан, –1968.
22. Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон. Т.:Фан, 1965.
23. Абдухалимов Б. «Байт–ал ҳикма» ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. –Т.:Тошкент ислом университети. 2004.
24. Абу Ҳомид Ғазолий. Кимиёи саодат. –Т.: Адолат. 2005.
25. Абу Ҳомид Ғазолий. Ихёе улуми-д-дин. I-китоб. –Т.: Мовароуннахр. 2003.
26. Амир Темур. Темур тузуклари. –Т., 1995.
27. Нуритдинов М.Н. «Из истории становления наук на Мусульманском Востоке» - Т.: «Navro'z». 2015.

28. Нуритдинов М.Н. «Философия Мавераннахр XVI–XVII веков». – Т.: «Navro`z». 2015.

Scopusdan maqolalar

1. Aklan, A.K. Smoke and Fire. Sign Inference in Greek and in Indian Epistemology. *J Indian Philos* (2024). <https://doi.org/10.1007/s10781-024-09572-w>
2. Chen, S. (2024). Research on the History of Chinese Philosophy and Chinese Philosophy's Creation. In: *Doing Chinese Philosophy*. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-99-9840-1_3
3. Bonfiglioli, R. (2024). Philosophy of History, Morality and Human Beings. In: *Human Nature, Mind and the Self in Adam Smith's Moral Philosophy*. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-56779-7_6
4. Ohashi, R. Nishitani Philosophy as the Breakthrough (*Durchbruch*) of Nishida Philosophy. *Journal East Asian Philosophy* 3, 19–37 (2024). <https://doi.org/10.1007/s43493-023-00028-1>
5. Šadić, R. (2024). Philosophy of Religious Pluralism – An Islamic Perspective. In: Koçyiğit, I., Yağdı, Ş. (eds) *Interreligiöse Hermeneutik in pluralen Gesellschaften*. Wiener Beiträge zur Islamforschung. Springer VS, Wiesbaden. https://doi.org/10.1007/978-3-658-44523-2_10
6. Stepien, R.K. Prolegomena to a Buddhist philosophy of religion. *Int J Philos Relig* 94, 63–89 (2023). <https://doi.org/10.1007/s11153-023-09867-0>
7. Gabsi, Z. (2024). Sufism: Is it the Alternative Face of Islam?. In: *Muslim Perspectives on Islamophobia*. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-57300-2_7

Axborot manbaalari

29. www.lex.uz.
30. www.gov.uz.
31. www.library.ziyonet.uz.
32. www.faylasuf.uz.
33. http://booksss.ru/filosofiya/Slovar_Filosof.rar
34. http://www.philosophy.ru/Библиотека_Института_Философии.

7. Fanning o'quv dasturi "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedراسi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ullar:**

M. Qodirov – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedراسi professori, falsafa fanlari nomzodi.

Sh.S. Jurayev – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedراسi katta o'qituvchisi, PhD.

9.

Taqrizchilar:

Karimov R.R. – UzMU “Falsafa tarixi va mantiq” kafedrası professori, f.f.n.;
Saydaliyeva N.Z. – TDSHU, “Sharq falsafasi va gernevika” kafedrası
dotsenti, f.f.n.

deff